

## JINOYAT SODIR QILISHNING HOLATLARIGA QARAB JAZOLANISHI

Abdushukurov Shuxrat Xolmatovich  
Muxim topshiriqlar boyicha inspektori

### Annatatsiya

Mazkur maqolada, Jinoyat sodir qilishning holatlariga qarab jazolanishi haqida bo'lib quyidagi matnda umumiy tushunchalar va holatlar yuzasidan kelib chiqishi qisqacha mazmunda keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Jinoiy oqibatlar, jinoyatning belgilari, qilmishning ijtimoiy xavfliligi, ijtimoiy munosabat.

Jinoiy harakatsizlik uchun shaxsni javobgarlikka tortishda jinoiy xulq-atvorning xususiyati va tarkibi bilan birga quyidagi uch holatdan kelib chiqib harakatsizlik chegarasini ham belgilash kerak:

- a) shaxsning ma'lum bir harakatni bajarishga majburiyligi;
- b) ma'lum bir sharoitda bunday majburiyatlarni bajarish imko-niyatining mavjudligi va bunday imkoniyatlarning obyektiv realligi;
- c) shaxs tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan harakatlarning bajarilmasligi[1].

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoiy harakatsizlikning ikki shakli haqida so'z yuritiladi:

1. "sof" harakatsizlik;
2. "aralash" harakatsizlik[2].

Sof harakatsizlik – qonunda jinoyat deb belgilangan harakatlarni bajarmaslikdan iborat bo'lib, bunda kelib chiqqan oqibatdan qat'i nazar, harakatni bajarmaganlik faktining o'zi aybdor shaxsni javobgarlikka tortish uchun yetarli hisoblanadi. Masalan, Jinoyat kodeksi 221-, 232-, 279-moddalarida qonunda belgilangan oqibat kelib chiqqan hollardagina jinoyat deb hisoblanadigan harakatsizlik uchun javobgarlik belgilangan.

Aralash harakatsizlikda subyektning texnik yoki ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qilmasligi tufayli ularga zarar yetkazilishi yoki zarar yetkazilish xavfining vujudga kelishiga yo'l qo'yib beradi. Aralash harakatsizlikning mohiyati shaxsning bartaraf etishi kerak bo'lgan ijtimoiy xavfli oqibatni bartaraf qilmasligida ifodalanadi. Masalan, Jinoyat kodeksi 260, 266, 268, 269-moddalari. Harakatsizlikning "sof" va "aralash" shakllari haqidagi olimlar-ning fikrlari harakatsizlikni shakllarga bo'lish mezoni sifatida harakat-sizlikning xususiyatini emas, balki jinoiy oqibatlarning qonunda ifodalash usuliga asoslangan[3].

### 2. Jinoyat belgilari.

Jinoyat – huquqiy hodisa sifatida o'ziga xos jihatlarni ifodalov-chi ma'lum bir belgilarga egadir. Har qanday ijtimoiy xavfli qilmish ham jinoyat hisoblanmaydi, qilmishning jinoyat

deb hisoblanishi uchun unda jinoyat qonunida o‘rnatilgan belgilar va jinoyat tarkibi mavjud bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat belgilarini mustahkamlovchi maxsus modda mavjud emas. Shu sababdan jinoyat belgilari jinoyat qonunida jinoyatga berilgan ta’rif asosida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 14-moddasi 1-qismida jinoyatga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.” Jinoyat qonunida berilgan jinoyat tushunchasi uchta jinoyat-huquqiy institutdan iborat:

- jinoyat qonuni;
- jinoyat;
- jazo institutlari.

Ammo shuni alohida ta’kidlash joizki, faqat ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqargan qilmishlarga jinoyat hisoblanmay, balki qonun bilan qo‘riqlanadigan obyektga real zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli qilmishlar ham jinoyat hisoblanadi. O‘zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksi 14-moddasi 2-qismida: “Ushbu kodeks bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi”, -deyilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, jinoyatga berilgan ta’rifdan kelib chiqib, qilmishda jinoyatning barcha belgilari bo‘lsagina u jinoyat deb topiladi. Agar muayyan zararli oqibatning kelib chiqishida shaxsning aybi bo‘lmasa, bunday qilmish jinoyat hisoblanmaydi. Jinoyat huquqida bunday harakatlar qilmishning jinoyatligini istisno qiladigan holatlar deb aytiladi.

Har qanday ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb hisoblash uchun barcha jinoyatlar uchun zarur bo‘lgan jinoyatning belgilari, shuning-dek, shu jinoyatda aybning mavjud ekanligi va aybning shakllari ishlab chiqilgan, ana shu belgilar va aybning biror shakli mavjud bo‘lsagina qilmish jinoyat hisoblanadi. Yuqorida jinoyatga berilgan ta’rifdan kelib chiqqan holda jinoyatning quyidagi belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) qilmishning ijtimoiy xavfliligi;
- 2) qilmishning huquqqa xilofligi;
- 3) qilmishda aybning mavjudligi;
- 4) qilmishning jazoga loyqligi.

Birinchi navbatda qonunda jinoyatning belgisi sifatida “qilmishning ijtimoiy xavfliligi” belgilab qo‘yilgan. Ijtimoiy xavfli qilmish murakkab va o‘z tuzilishiga ega bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy toifadir. Jinoyat qonuni va ilmiy adabiyotlarda qilmishning ijtimoiy xavf-liligi qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga yetkazadigan yoki yetkazish xavfi mavjud bo‘lgan zararining xususiyati va miqdori bilan belgilanadi, deb ko‘rsatilgan.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под. ред. док. юрид. наук. проф. Н.Ф. Кузнецовой и канд. юрид. наук. доцента И.М. Тяжковой. -М.: Изд. Зерцало, 1999. – С. 128, 129.
2. Ковалев М.И. Понятие преступления в советском уголовном праве. – Свердловск, 1987. С. 77-79.
3. Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, Закон и право, 1999. – С. 54.
4. Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под. ред. док. юрид. наук. проф. Н.Ф. Кузнецовой и канд. юрид. наук. доцента И.М. Тяжковой. -М.: Изд. Зерцало, 1999. – С. 141.